NEMATJONOV Jaloliddin
"Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi
Kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va
attestatsiya jarayonlarini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA DUAL TA'LIM SHAKLIDA KASBIY QAYTA TAYYORLASH TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): NEMATJONOV J. Bolalar musiqa va san'at maktablarida dual ta'lim shaklida kasbiy qayta tayyorlash tizimini joriy etish masalalari // Madaniyat ta'limi – Культурное образование – Cultural Education. № __ (2026). B. 108.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat yuritayotgan nomutaxassis pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlashning mavjud holati tahlil qilinib, amaldagi malaka oshirish tizimining cheklovlari baholangan. Muammoni bartaraf etish maqsadida pedagogik faoliyatini davom ettirgan holda amalga oshiriladigan "1+5" dual ta'lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli, uning tashkiliy-pedagogik mexanizmi, 18 oylik 60 ECTS kredit asosidagi o'quv jarayoni hamda kompetensiyaviy baholash tizimi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *dual ta'lim, kasbiy qayta tayyorlash, bolalar musiqa va san'at maktablari, "1+5" dual ta'lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli, pedagog kompetensiyasi, ECTS kredit-modul tizimi, uzluksiz kasbiy rivojlanish, ta'lim sifati.*

NEMATЖОНОВ Жалолиддин
Главный специалист отдела организации переподготовки кадров,
повышения квалификации и аттестационных процессов
Государственного учреждения "Центр образования в сфере культуры"

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПЕРЕПОДГОТОВКИ В ФОРМЕ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ДЕТСКИХ ШКОЛАХ МУЗЫКИ И ИСКУССТВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализировано современное состояние профессиональной переподготовки педагогов без профильного образования, работающих в детских школах музыки и искусства, а также дана оценка ограничениям действующей системы повышения квалификации. В целях решения выявленной проблемы предложена модель профессиональной переподготовки в форме дуального обучения "1+5", реализуемая без отрыва педагогов от основной профессиональной деятельности. Представлены организационно-педагогический механизм модели, образовательный процесс

продолжительностью 18 месяцев объемом 60 кредитов ECTS, а также система оценки профессиональных компетенций.

Ключевые слова: *дуальное образование, профессиональная переподготовка, детские школы музыки и искусства, модель профессиональной переподготовки в форме дуального обучения "1+5", профессиональная компетентность педагога, кредитно-модульная система ECTS, непрерывное профессиональное развитие, качество образования.*

NEMATJONOV Jaloliddin
Chief Specialist of the Department for Organizing Retraining,
Professional Development and Certification Processes,
State Institution "Culture Education Center"

ISSUES OF INTRODUCING A DUAL PROFESSIONAL RETRAINING SYSTEM IN CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS

ANNOTATION

This article analyzes the current state of professional retraining for non-specialist teachers working in children's music and art schools and evaluates the limitations of the existing professional development system. To address these challenges, the study proposes the "1+5" dual education-based professional retraining model, which enables teachers to continue their professional activities while acquiring a new specialization. The paper presents the organizational and pedagogical framework of the model, an 18-month curriculum based on 60 ECTS credits, and a competency-based assessment system.

Keywords: *dual education, professional retraining, children's music and art schools, "1+5" dual education-based professional retraining model, teacher competence, ECTS credit-modular system, continuous professional development, quality of education.*

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifati va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot va globallashuv sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish hamda nazariya va amaliyotni integratsiyalashga asoslangan ta'lim mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. [2; 7; 10; 11] Shu jihatdan, ish joyiga integratsiyalashgan dual ta'lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli zamonaviy kasbiy ta'limning samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda ham madaniyat va san'at ta'limi tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda bolalar musiqa va san'at maktablarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. [2; 5; 6] Biroq amaliyot tahlili ayrim mutaxassisliklar bo'yicha

pedagog kadrlar tanqisligi saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Natijada fortepiano, torli va xalq cholg‘ulari, vokal, xoreografiya, aktyorlik san’ati hamda musiqa nazariyasi kabi yo‘nalishlarda ayrim fanlar nomutaxassis pedagoglar tomonidan o‘qitilmoqda, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. [4; 5; 6] Amaldagi malaka oshirish tizimi pedagoglarning mavjud mutaxassisligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilsa-da, yangi mutaxassislik bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash imkoniyatini bermaydi. Mazkur holat bolalar musiqa va san’at maktablari uchun ish joyidan ajralmagan holdagi kasbiy qayta tayyorlash modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. [7; 8; 16]

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz kasbiy rivojlanish hamda dual ta’lim konsepsiyasi asosida amalga oshirildi. [2; 7; 15] Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, pedagogik modellashtirish, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. [1; 2; 3] Metodologik asos sifatida J. Dewey [9], D. Kolb [10], J. Raven [11], J. Winterton [15] hamda D. Euler [16]ning ilmiy qarashlari qabul qilindi. Taklif etilgan model mavjud ilmiy yondashuvlar hamda bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatining amaliy ehtiyojlari asosida ishlab chiqildi. [4; 8; 16; 18]

Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi, uzluksiz ta’lim va dual ta’lim masalalari zamonaviy pedagogika hamda ta’lim menejmentining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. [2; 7; 17] Dual ta’lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning samarali mexanizmi sifatida e’tirof etilmoqda. [8; 12; 13; 16]John Dewey ta’limda “Learning by Doing” tamoyilini ilgari surib, bilimlarni amaliy faoliyat orqali egallash zarurligini asoslagan. [9] Ushbu yondashuv David Kolb tomonidan tajribaviy o‘qitish nazariyasida rivojlantirilib, kasbiy kompetensiyalar amaliy tajriba va refleksiya orqali shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. [10]

John Raven kompetensiyani bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda motivatsiya hamda kasbiy faoliyatni samarali bajarish salohiyatini qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida talqin etadi. [11] Jonathan Winterton esa kompetensiyalarni funksional, ijtimoiy va meta-kompetensiyalarga ajratib, ularning uyg‘un rivojlanishi zamonaviy kasbiy ta’limning asosiy omili ekanligini ta’kidlaydi. [15]

Professor Dieter Euler dual ta’limni ta’lim muassasasi va ish beruvchi hamkorligiga asoslangan model sifatida baholab, kasbiy kompetensiyalarni real ish faoliyatida shakllantirish uning asosiy afzalligi ekanligini qayd etadi. [16] Germaniya tajribasi dual ta’lim tizimining ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik asosida samarali tashkil etilishini namoyon etadi. [12; 16] OECD va UNESCO hisobotlarida ham ish joyiga asoslangan ta’lim zamonaviy kasbiy ta’limning samarali modeli sifatida e’tirof etilgan. [7; 17]


Mahalliy olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuv va uzluksiz ta'lim masalalari tadqiq etilgan. [2; 16; 18] Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar musiqa va san'at maktablari uchun dual ta'lim asosida kasbiy qayta tayyorlashning yaxlit tashkiliy-pedagogik modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. [4; 8; 16] Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz kasbiy rivojlanish va dual ta'lim konsepsiyasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, pedagogik modellashtirish, ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish hamda ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. [1; 2; 3] Metodologik asos sifatida John Dewey [9], David Kolb [10], John Raven [11], Jonathan Winterton [15] va Dieter Euler [16]ning ilmiy qarashlari qabul qilindi.

Tadqiqot natijasida bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat yuritayotgan nomutaxassis pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlashga mo'ljallangan "1+5" dual ta'lim modeli ishlab chiqildi. Model pedagogning asosiy ish joyidan ajralmagan holda yangi mutaxassislik bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni egallashiga yo'naltirilgan.

Kasbiy qayta tayyorlash dasturini 18 oy (3 semestr) davomida 60 ECTS kredit hajmida tashkil etish taklif etildi. O'quv jarayoni nazariy fanlar, individual mutaxassislik mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim hamda ish joyidagi amaliy faoliyat integratsiyasi asosida shakllantirildi. Nazariy mashg'ulotlar haftaning bir kuni malaka oshirish institutida, amaliy faoliyat esa qolgan besh kun davomida tinglovchining asosiy ish joyida amalga oshirilishi nazarda tutildi. [8; 13; 16]

DUAL TA'LIM SHAKLIDAGI KASBIY QAYTA TAYYORLASH DASTURINING O'QUV REJASI (60 ECTS kredit – 18 oy)

№	O'quv faoliyati	Kredit (ECTS)	Akademik soat	Ulushi (%)
1	Nazariy fanlar	18	540	30 %
2	Individual mutaxassislik mashg'ulotlari	22	660	37 %
3	Pedagogik amaliyot	12	360	20 %
4	Mustaqil ta'lim	6	180	10 %
5	Yakuniy davlat attestatsiyasi	2	60	3 %
	JAMI	60	1800	100 %



INDIVIDUAL MUTAXASSISLIK MASHG'ULOTLARI ICHKI TUZILMASI

№	Faoliyat turi	Kredit (ECTS)
1	Mutaxassislik (yakka tartibdagi mashg'ulotlar)	12
2	Konsertmeyster bilan ishlash	3
3	Ijrochilik repertuari	3
4	Ochiq ijro darsi	2
5	Yakuniy ijro imtihoni	2
	JAMI	22

Tinglovchilarning o'zlashtirish darajasini baholash elektron portfolio, ochiq darslar, ijodiy topshiriqlar, amaliy faoliyat natijalari hamda yakuniy davlat attestatsiyasi asosida amalga oshirilishi belgilandi. Dastur yakunida bitiruvchilarga davlat namunasidagi kasbiy qayta tayyorlash diplomi berilishi ko'zda tutildi. [2; 3]

Xalqaro tajribada, xususan Germaniya, Avstriya va Shveysariyada dual ta'lim tizimi ta'lim muassasalari hamda ish beruvchilar hamkorligiga asoslanib, nazariy

tayyorgarlikni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalash orqali tashkil etiladi. Mazkur model asosan yangi mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan. [8; 12; 16]

Mezon	An'anaviy dual ta'lim	Taklif etilgan "1+5" modeli
Tinglovchi	Talaba	Amaldagi pedagog
Amaliyot joyi	Korxona	BMSM
Nazariya	OTM	Malaka oshirish instituti
O‘qitish shakli	Guruh	Guruh + individual
Natija	Kasb egallash	Kasbiy qayta tayyorlash
Davomiyligi	2–3 yil	18 oy

Taklif etilgan "1+5" dual ta'lim modeli bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uning asosiy farqi shundaki, tinglovchi amaldagi pedagog bo‘lib, o‘zining asosiy ish joyini saqlab qolgan holda kasbiy qayta tayyorlanadi. Shuningdek, musiqa va san'at ta'limiga xos bo‘lgan individual (ustoz–shogird) mashg‘ulotlari modelning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur yondashuv uni an'anaviy dual ta'lim modellaridan ajratib turadi. [8; 12; 16]

Dastur hajmining 60 ECTS kredit etib belgilanishi kasbiy qayta tayyorlash uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va mustaqil ta'lim o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. 18 oylik o‘qish muddati esa pedagogning mehnat faoliyatini to‘xtatmagan holda yangi mutaxassislik bo‘yicha yetarli kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Shu jihatdan taklif etilgan model madaniyat va san'at ta'limi tizimining amaliy ehtiyojlariga moslashtirilgan tashkiliy-pedagogik yechim sifatida baholanishi mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan model nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash hamda bolalar musiqa va san'at maktablarida mutaxassis pedagoglar tanqisligini bosqichma-bosqich kamaytirishga xizmat qiladi. [2; 7; 8; 16]

Shunday qilib, taklif etilgan "1+5" dual ta'lim modeli xorijiy tajribada qo‘llanilayotgan an'anaviy dual ta'lim modellaridan amaldagi pedagoglarni asosiy ish joyidan ajralmagan holda kasbiy qayta tayyorlashga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur model bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatining o‘ziga xos tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda nazariy ta'limni bevosita ish joyidagi uzluksiz amaliyot bilan uyg‘unlashtiradi, kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarini joriy etadi hamda kredit-modul tizimi asosida kasbiy

rivojlanishning uzluksizligini ta'minlaydi. Natijada pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifati va amaliy samaradorligini oshirish uchun yaxlit tashkiliy-pedagogik mexanizm shakllanadi. [2; 7; 8; 10; 15; 17]

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi dual ta'lim tamoyillarining bolalar musiqa va san'at maktablari tizimiga ilk bor kompleks ravishda moslashtirilganligi, kasbiy qayta tayyorlash jarayonining kredit-modul tizimi, kompetensiyaviy baholash, ish joyidagi uzluksiz amaliyot hamda mentorlik elementlari bilan integratsiyalashgan yagona model asosida ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv pedagoglarning kasbiy faoliyatini uzluksiz takomillashtirish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash hamda bolalar musiqa va san'at maktablarida malakali mutaxassislar tayyorlashning barqaror tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. [2; 4; 7; 12; 16; 17]

XULOSA. Tadqiqot natijalari bolalar musiqa va san'at maktablarida nomutaxassis pedagoglarni kasbiy qayta tayyorlashning amaldagi tizimi zamonaviy ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondirmasligini ko'rsatdi. Tahlillar malaka oshirish tizimi mavjud mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi, biroq yangi mutaxassislik bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini bermasligini tasdiqladi. Shu bois pedagogning asosiy ish joyidan ajralmagan holda amalga oshiriladigan **"1+5" dual ta'lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli** taklif etildi.

Taklif etilgan model nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda kasbiy qayta tayyorlashning yaxlit tashkiliy-pedagogik mexanizmini nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati dual ta'lim asosida kasbiy qayta tayyorlashning bolalar musiqa va san'at maktablariga mos tashkiliy-pedagogik modelini ilmiy asoslashdan iborat. **Amaliy ahamiyati** esa modelning pedagoglar tanqisligini kamaytirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda qo'llash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Muammo	Taklif etilgan yechim	Kutilayotgan natija	Ta'sir qiladigan yo'nalish
Mutaxassis pedagoglar yetishmasligi	Dual ta'lim shaklidagi kasbiy qayta tayyorlash modeli	Pedagoglar tanqisligi bosqichma-bosqich kamayadi	Kadrlar ta'minoti barqarorligi
Nazariya va amaliyot o'rtasida uzviylikning yetarli emasligi	Nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish	Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi oshadi	Ta'lim jarayonining samaradorligi
Malaka oshirish tizimining cheklanganligi (yangi mutaxassislik bermaydi)	Kasbiy qayta tayyorlash (yangi mutaxassislik bo'yicha kompetensiyalar shakllantirish)	Yangi mutaxassislik bo'yicha diplomga ega bo'lgan pedagoglar soni ortadi	Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi
Ta'lim sifati pastligi	Kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy baholash tizimini joriy etish	Ta'lim sifati va o'quvchilar ijodiy natijalari yaxshilanadi	Ta'lim natijalari barqarorligi

Tadqiqotning **cheklovi** model samaradorligining keng ko'lamli eksperimental sinovlar orqali baholanmaganidadir. **Kelgusidagi tadqiqotlar** modelni amaliyotda sinovdan o'tkazish, uning samaradorligini empirik baholash hamda madaniyat va

san'at ta'limining boshqa yo'nalishlariga moslashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, taklif etilgan model bolalar musiqa va san'at maktablarida kasbiy qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali tashkiliy-pedagogik mexanizm sifatida ilmiy asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.** O'RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz/uz/docs/-5013007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 21-iyunagi PQ–231-son qarori, https://lex.uz/docs/6981085

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2021-yil 17-sentabrdagi VM–572-son qarori. https://lex.uz/docs/5641270

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 20-dekabr VM–862-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2026-yil 21-apreldagi PQ–150-son qarori. https://www.lex.uz/en/docs/-8156378

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–391-son qarori.

https://lex.uz/docs/7221711

7. UNESCO. (2022). Transforming Technical and Vocational Education and Training for Successful and Just Transitions: UNESCO Strategy 2022–2029. Paris: UNESCO.

https://unesdoc.unesco.org/search/efa757d2-7ace-4156-97c7-d79651be739e

8. Cedefop. (2015). Work-based learning in continuing vocational education and training: policies and practices in Europe. Research Paper No. 49. Luxembourg: Publications Office of the European Union. Elektron manzil: https://www.cedefop.europa.eu/en/publications/5549

9. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan. https://archive.org/details/experienceeducat00dewe/page/n5/mode/2up

10. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. https://books.google.com/books?id=zXruAAAAMAAJ

11. Raven, J. (1984). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H. K. Lewis. https://librarycatalog.ecu.edu/catalog/278293

12. Deissinger, T. (2015). The German Dual Vocational Education and Training System. *Education + Training*, 57(8–9), 902–916. https://kops.uni-konstanz.de/server/api/core/bitstreams/80a1aa48-6968-4703-82ba-68fe67258614/content

13. Fuller, A., & Unwin, L. (2011). Apprenticeship as an Evolving Model of Learning. *Journal of Vocational Education & Training*, 63(3), 261–266. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13636820.2011.602220

14. Guile, D., & Griffiths, T. (2001). Learning Through Work Experience. *Journal of Education and Work*, 14(1), 113–131. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13639080020028738

15. Winterton, J., Delamare-Le Deist, F., & Stringfellow, E. (2006). *Typology of knowledge, skills and competences: Clarification of the concept and prototype.* CEDEFOP Reference Series 64. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities. https://books.google.co.uz/books?id=5h4DDQAAQBAJ&redir_esc=y

16. Euler, D. (2013). Germany's Dual Vocational Training System: A Model for Other Countries? Gütersloh: Bertelsmann Stiftung. https://www.bertelsmann-stiftung.de/fileadmin/files/BSt/Publikationen/GrauePublikationen/GP_Germanys_dual_vocational_training_system.pdf

17. OECD. (2021). OECD Skills Outlook 2021: Learning for Life. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/06/oecd-skills-outlook-2021_6f4da936/0ae365b4-en.pdf

18. Masharipova, B. E. (2024). Maktabgacha ta'limda dual ta'lim imkoniyatlari. International Scientific-Practical Conference "Preschool Education: Quality and Efficiency, Development Perspectives", 4–5 December 2024. https://zenodo.org/records/14327024?utm_source=chatgpt.com